

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining
assiteti Sh.A.Babaevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
60840100-Veterinariya meditsinasi ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga
“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Buyraklar fiziologiyasi” mavzusidagi
ma’ruza mashg‘uloti taqdimotiga**

T A Q R I Z

Mavzu ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Mavzu reja, ko‘rgazmali qurollar, tayanch iboralar va asosiy mazmundan iborat. Darsning maqsadi butun mazmundan kelib chiqqan holda berilgan. Ma’ruza mashg‘ulotida qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalar va pedagogik texnologiyalar mohirlik bilan qo‘llanilgan, ma’ruza matnining asosiy qismi to‘liq yozilgan. Bunda darslikdan, o‘quv qo‘llanmadan foydalanilgan.

“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Buyraklar fiziologiyasi” mavzusidagi ma’ruza mashg‘ulotining taqdimotida mavzuga oid tushunchalar batafsil yoritilgan bo‘lib, buyraklar, ter bezlari, o‘pka, ichaklar, moddalar almashinuvi, oqsil, yog‘, uglevodlar, suv, tuzlar, zaharli moddalar, nefron, Bauman-Shumlyanskiy kapsulasi, Malpigiya koptokchasi, Genle kovuzlog‘i, burama kanalchalar, filtratsiya, reabsorbsiya, glyukozuriya, gematuriya, albuminuriya, gemoglobinuriya, renal omillar, ekstrarenal omillar, diurez haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, bir necha xorijiy adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan mustahkamlangan. Shular asosida slaydlar orqali mavzu aniq izohlangan, nazorat savollari, nostandart testlar va aqliy hujum savollari bilan boyitilgan.

Ma’ruza matni taqdimotida internet ma’lumotlari va mavzuga oid grafik organayzerlardan foydalanilgan bo‘lib, slaydlarda kiritilgan rangli rasmlar mavzuni talabalar tomonidan chuqurroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Assistent Sh.A.Babaevaning “Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Buyraklar fiziologiyasi” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘uloti matni va slaydlari hozirgi zamon innovatsion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb o‘ylayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi
va patologik fiziologiya”
kafedrasining mudiri:**

D.Eshimov

**“Hayvonlar fiziologiyasi, biokimyosi va patologik fiziologiya” kafedrasining
assiteti Sh.A.Babaevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti
60840100-Veterinariya meditsinasi ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabalariga
“Hayvonlar fiziologiyasi” fanidan “Buyraklar fiziologiyasi” mavzusidagi
ma’ruza mashg‘ulotining taqdimotiga**

T A Q R I Z

Ma’ruza mashg‘uloti mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi. Ma’ruza mashg‘uloti matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab ma’ruza mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotini o‘qitishning pedagogik texnologiyasi berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan. Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasida esa o‘quv mashg‘ulotining vaqti ko‘rsatilgan.

Agar mavzuda belgilangan reja ketma-ketligiga rioya qilinib, ko‘rgazmali qurollardan o‘z vaqtida foydalanib, tayanch iboralarga izoh berib, ma’ruza mashg‘ulotda talabalar bilan muloqotda bo‘lib, mavzu yuzasidan fikrlar so‘ralib, o‘tilsa, maqsadga erishiladi. Mavzuning oxirida nazorat savollari va blis savol metodidan ham foydalanilgan.

Mavzuning shakli va mazmuni uslubiy to‘g‘ri yozilgan shuning uchun asistent Sh.A.Babaeva tomonidan tayyorlangan “Buyraklar fiziologiyasi” mavzusini o‘quv jarayonida joriy qilishni tavsiya qilaman.

**VITI Vet-sanitariya va urchitish
patologiyasi laboratoriyasi mudiri,
v.f.d. katta ilmiy xodim:**

O.O‘.Qo‘ldoshev